

HOZIRGI GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR VA AHOLI YASHAYDIGAN HUDUDLARNI QATTIQ MAYISHIY CHIQINDILARDAN HALOS ETISH CHORALARI HAQIDA

Qo'chqorov Ziyodjon Karimovich

Dang'ara 1-son Politexnikumi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqolada chiqindi masalasi global ekologik muammo sifatida tahlil etilgan. Olingan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu maqolada qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish borasida korsatma va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlari: global ekologik muammo, chiqindi turlari, mahalliy ekologik muammolar, chang, shovqin, issiqlik, chiqindi turlari, atrof-muhit, qattiq mayishiy chiqindi (QMCh), utilizatsiya, qayta ishlash, potentsial, fraktsiyalar sifati.

АННОТАЦИЯ

В нашей стране предпринимаются последовательные усилия по охране окружающей среды, обеспечению здоровья населения, рациональному использованию природных ресурсов, улучшению санитарно – экологической обстановки. В данной статье анализируются вопросы отходов как глобальная экологическая проблема. В этой статье приведены рекомендации по утилизации (ТБО) твердых бытовых отходов.

Ключевые слова: глобальная экологическая проблема, виды отходов, локальные экологические проблемы, пыль, шум, тепло, виды отходов,

окружающая среда, твердые бытовые отходы (ТБО), утилизация, переработка, потенциал, качество фракций.

ABSTRACT

Consistent efforts are being made in our country to protect the environment, ensure public health, rational use of natural resources, and improvement of sanitary and ecological conditions. This article analyzes the issue of waste as a global environmental problem. Proposals were developed based on the findings. This article provides guidelines and recommendations for solid waste disposal.

Key words: global environmental problem, types of waste, local environmental problems, dust, noise, heat, types of waste, environment, solid household waste (MSW), disposal, processing, potential, quality of fractions.

KIRISH

Chiqindilarni qayta ishlash chiqindilarni boshqarish siyosatida eng muhim choratadbirlardan biri hisoblanadi. Soʻnggi yillarda mamlakatimizda chiqindilarni qayta ishlash masalasiga alohida eʼtibor berilmoqda. Hozirgi vaqtda, insoniyat eng keskin global ekologik muammolarga duch kelmoqda. Ekologik muammolarning mohiyati shundaki, inson faoliyati natijasida tabiiy yashash muhiti buziladi. Atrof-muhit holati koʻpincha atrof-muhitning oʻzgarishi bilan bogʻliq boʻlgan tendensiyalarni ham oʻz ichiga oladi. Bu oʻzgarishlar tabiiy, inson tomonidan qoʻzgʻatilgan boʻlishi mumkin. Atrof – muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish murakkab va koʻp qirrali muammodir. Uning yechimi inson va tabiat oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ularni muayyan huquqiy qoidalar, koʻrsatmalar va qoidalar tizimiga boʻysundirishga bogʻliq. Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish koʻplab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar hamda shahar, qishloq joylarida ogʻir va keng tarqalgan muammo hisoblanadi. Qattiq organik chiqindilarni ishlab chiqarish butun dunyo boʻylab har yili keskin ortib bormoqda. Maishiy yoki shahar chiqindilari odatda turli xil inson faoliyatida duch keladigan oʻzgaruvchan manbalardan hosil

bo'lad. Bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilar asosan uy xo'jaliklari (55-80%), keyin bozor yoki tijorat joylari (10-30%). Keyinchalik sanoat, ko'chalar, muassasalar va boshqa ko'plab korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan o'zgaruvchan miqdorlardan iborat. Bunday hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarning xilma-xilligi ularni saralash va material sifatida ishlatishdagi asosiy to'siqdir. Bunday chiqindilarni saralash va ajratish eng muhim va an'anaviy usullardan biri bo'lib, har qanday potentsial foydalanish uchun ajratilgan fraktsiyalarning sifati to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish uchun qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishning muhim bosqichlari hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida eng asosiy ekologik muammolardan biri, bu atrof tabiiy muhitining chiqindilar bilan ifloslanishidir. Hozirgi vaqtda yer yuzida chiqindilar miqdori yildan yilga ko'payib bormoqda. Chiqindilarning paydo bo'lishi, bevosita insoniyatning faol iqtisodiy faoliyati bilan bog'liqdir.

Chiqindilarni qayta ishlash, chiqindilarni boshqarish siyosatida eng muhim chora – tadbirlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda chiqindilarni qayta ishlash masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 2-fevral kuni chiqindilar bilan bog'liq ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash borasida bergan. 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan vidioselektor yig'ilishda mayishiy chiqindi to'plash qamrovini 95%ga, ishlash hajmini 40%ga, yetkazish vazifalari qo'yilgan. Atrof – muhitni va aholi salomatligini muhofaza qilish maqsadida chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash bo'yicha ishlar olib borilishi kerakligini ta'kidlagan. Chiqindi tizimini tartibga solish – hayotimiz, sog'lig'imiz uchun eng muhim vazifalardan biri. Bu inson salomatligi va xavfsizligi, millat kelajagi bilan bog'liq dolzarb masala ekanligini ta'kidladi. Mamlakatimizda chiqindilarni asosan poligonlarga joylashtirish yoki ularni yoqish usullaridan keng foydalaniladi. Chiqindilar bo'yicha muammolarni hal etishda amalga oshiriladigan ishlarning strategik yo'nalishi va muvofiqlashtirishning asosi bo'lib xizmat qilishi, bu jarayonda asosiy e'tibor avvalo, chiqindilarni boshqarish sohasidagi davlat siyosatini va

harakatlar samaradorligini oshirishga, ularni qisqartirishga imkon darajasida ulardan qayta foydalanish uchun ikkilamchi qayta ishlashga qaratilishi kerak hisoblanadi. Poligonlarga chiqindilarni joylashtirish muammoning yechimi bo'lmaydi. Sababi poligonlarga joylashtirilgan chiqindilar atrof-muhitga zarar keltiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi. .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi PQ-4291-son qarori bilan tasdiqlangan 2019-2028-yillarda O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish Strategiyasida umumiy maydoni 1 108,6 gektarga teng 167 ta poligonni yopish va rekultivatsiya qilish bilan bir qatorda, faoliyat yuritayotgan poligonlar o'rnida umumiy maydoni 693,3 gektarga teng 54 ta modernizatsiyalashgan poligon yaratish va umumiy maydoni 80 gektarga teng 5 ta poligon qurish vazifasi belgilangan. Biroq, xorijiy davlatlarda poligonlarni sonini kamaytirish maqsadida optimal yechimlar ishlab chiqilgan va huquqiy mexanizmlar belgilangan. Masalan, Filippinda 2000-yilda "Qattiq chiqindilarni ekologik boshqarish to'g'risida"gi qonun kuchga kiringandan so'ng ochiq chiqindixonalarni tashkil etish va boshqarish taqiqlangan. Barcha ochiq chiqindixonalar uch yilgacha boshqariladigan chiqindixonalarga aylantirilishi va boshqariladigan chiqindixonalar esa besh yil ichida yopilishi kerakligi belgilangan. Faqatgina chiqindilarni qayta ishlash natijasida hozil bo'lgan qoldiq chiqindilarni to'plash uchun sanitariya talablariga javob beradigan poligonlar qurilishiga ruxsat berilgan.

Chiqindilarni qayta ishlash sohasida quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda: Birinchidan, respublikamizda chiqindilarni qayta ishlash jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun moliyaviy va infratuzilmaviy muammolar mavjud. Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishdan tushgan mablag'lar miqdori chiqindilarni qayta ishlash bo'yicha to'liq mintaqaviy infratuzilmani yaratishga imkon bermaydi.

Ikkinchidan, chiqindilarni qayta ishlash sohasida raqobat muhitini yaratish, chiqindilardan qayta ishlangan mahsulotlarga nisbatan talabni rag'batlantirish

mexanizmlari mavjud emas. Xorijiy davlatlarda qayta ishlangan materiallardan foydalangan holda olingan tovar va xizmatlar bozorini rag‘batlantirish maqsadida ushbu mahsulotlarga nisbatan davlatning “yashil xaridi” tizimidan foydalanish imkoniyatlarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi yaratilgan. Masalan, Xitoyda chiqindilarni qayta ishlash va qayta ishlangan mahsulotlardan foydalanishga ko‘maklashish maqsadida davlat idoralari, davlat maktablari, davlat korxonalari va tashkilotlari hamda harbiy idoralar imtiyozli ravishda qayta ishlangan mahsulotlarni sotib olishi qonun bilan belgilangan.

Uchinchidan, chiqindilarni qayta ishlashdan ko‘ra ularni yo‘q qilishning boshqa muqobil usullaridan foydalanish amaliyoti saqlanib qolmoqda. Xususan, mamlakatimizda chiqindilarni asosan poligonlarga joylashtirish yoki ularni yoqish usullaridan keng foydalaniladi. Qayd etish kerakki, poligonlarga chiqindilarni joylashtirish muammoning yechimi bo‘lmaydi. Sababi poligonlarga joylashtirilgan chiqindilar atrof-muhitga zarar keltiruvchi asosiy manbalardan biridir. Qurilish chiqindilarini joylashtirish poligonlari tashkil qilinmaganligi natijasida ularni avtomobil yo‘llari yoqalariga, suv obyektlarining muhofaza zonalariga va boshqa qarovsiz hududlarga tashlab ketish holatlari ko‘plab uchramoqda. Tibbiyot va biologik chiqindilarni xavflilik darajasidan kelib chiqqan holda utilizatsiya qilish borasidagi muammolar saqlanib qolayotgani aholi orasida turli yuqumli va boshqa turdagi kasalliklar tarqalish xavfini tug‘dirmoqda. Bu borada mutasaddilar aybdorlarga nisbatan kerakli choralarni ko‘rmasdan jarimaga tortish bilan cheklanib qolishmoqda.

Ma’lumot uchun: Shisha butilka – 1 mln yil, plastik ichimliklar idishlari – 450-yil, bir martali ishlatiladigan tagliklar – 500-800-yil, alyuminiy konserva – 80-200-yil, batareyalar – 100-yil, kauchukli etik – 50-80 yil, plastik stakanlar – 50 yil, teri – 50 yil, qalay konserva – 50 yil, neylon mato – 30-40 yil, charm poyabzal – 25-40 yil, yog‘och – 10-15 yil, sigaret qoldiqlari – 10-12 yil, jun kiyimlar – 1-5 yil, sut qutilari – 5 yil, arqonlar – 3-14 oy, paxta qo‘lqop – 3 oy, karton – 2 oy, apelsin yoki banan qobig‘i – 2- 5 hafta, qog‘oz sochiq – 2-4 hafta muddatda chirydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. “Условная труда и охраны окружающей среды на стеклоизготовительных предприятиях”. Tadqiqot uz. ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ – АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР мавзусидаги конференция материаллари 2020 №21 31октябрь Ст-33 [33]
2. “Гигиеническая оценка Условий труда и охраны окружающей среды на стеклоизготовительных предприятиях” New Day in Medicine Новый День в Медицине. TIBBIYOTDA YANGI KUN №4(32) 2020 ст 73 [73]
3. Гигиеническая оценка и пути оптимизации водопользования сельского и городского населения в Республике Узбекистана области Ферганы. iScience Poland. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. Issue 4(38) Part 2 COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE Ст 197-202 Warsaw 2021 [197-202]
4. Гигиеническая оценка и пути оптимизации водопользования сельского и городского населения в Республике Узбекистана. New Day in Medicine Новый День в Медицине TIBBIYOTDA YANGI KUN №2(34/2)2021 ст-73
5. ТВЕРДЫЕ БЫТОВЫЕ ОТХОДЫ (ТБО)- ГЛОБАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА МИРА.